

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONI VA PEDAGOGNING O'RNI

**Safarova Urozgul Jura qizi**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute Magistranti

E-mail: [urozgulsafarova249@gmail.com](mailto:urozgulsafarova249@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogning bola rivojlanishidagi muhim o'rni ya'ni bolalarning o'sib rivojlanishining samarasi ta'lim berayotgan pedagog xodimlarning e'tibori, salohiyati bolalarga Vatanga bo'lgan mehr muhabbatini, madaniy merosini hamda qadriyatlarini namayon qilgan holda ta'lim-tarbiya berishi ko'zda tutilgan

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, muhit, pedagog, rivojlanish, mehr, qadriyatlar, e'tibor.

### ABSTRACT

This article provides for the important role of the educator in the development of the child in preschool educational organizations, that is, the attention and potential of pedagogical workers who are teaching the effect of the growth of children, education of children with respect to love for the motherland, cultural heritage and values.

**Keywords:** Education, education, environment, teacher, love, values, vnimanie.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важная роль педагога в развитии ребенка в дошкольных образовательных организациях, т. е. эффект роста и развития детей внимание, потенциал педагогических работников, осуществляющих воспитание, воспитание детей, проявляющих любовь к Родине, культурное наследие и ценности.

**ключевые слова.** Образование, воспитание, среда, педагог, любовь, ценности, внимание.

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?”  
deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va  
tarbiyasi deb javob beraman.

**SH.M.Mirziyoyev.**

## KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan o'sib rivojlanib borayotgan O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta. Shuningdek bu eng muhim va dolzarb masalaga aylanib kelmoqda. Bizga malumki kelajagimiz yoshlar qo'lida biz ularning tarbiyasiga, o'sib, rivojlanishiga astoydil bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilishimiz tarbiyamizning ustuvorligidir. Yurtboshimiz SH.M. Mirziyoev bu masalaga jiddiy qarab O'zbekistonning egasi bugungi yoshlar qo'lida ekanligini takidlab bolalarning har tamonlama komil inson bo'lib ulg'ayishiga, Vatanga muhabbat tuyg'usi yoshlik davridan boshlab voyaga yetishishiga astoydil harakat qilib kelmoqda. Xususan ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti muhim deb aynan bu tashkilotga Prezidentimiz SH.M. Mirziyoev alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlar sonini ko'paytirish, chekka-chekka qishloqlarda xam bu tashkilotni barpo etish, qolaversa xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari xam kupayib o'z ish faoliyatlarini puxta egallagan holda ish yuritilmoqda. Bog'chaga bolalarni jalb qilib, ularning ertangi kunini o'ylab, maktab ostonasiga borgunga qadar ancha ta'lim tarbiyaga ega bo'lib borishiga, maktab hayotidan xabardor bo'lishiga, ertangi kunimiz bundanda yorug' bo'lishiga Vatanimiz astoydil harakat qilmoqda. Qolaversa oliy malumotli pedagog xodimlarni ham kupaytirib, shart-sharoit yaratib, bilimlari xar tomonlama zukko, chaqqon, shijoatli qilib tayyorlab kelmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sifati eng muhim deb alohida e'tibor qaratilgan. Tarbiyachi o'zining pedagogik mahoratini doimo shakllantirib borish e'tiborli jihati mashg'ulot jarayonining ajoyib, qiziqarli tarzda olib borilishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Tarbiyachining bola qalbiga kira olishi, bolaga aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, politexnik tarbiya bera olishi, bolaning ongini ezgu niyatli yo'llarini topishi, tarbiyalanuvchilarning qalbiga kirib his tuyg'ularini anglay olishi, ularga namuna bo'la olishi, Vatanga muhabbat, hamdo'stlik kattalarga hurmat, madaniyat albatta har bir bolani bilimga qiziqtirib ulardagi qobiliyatlarni chiqara olishi bolaning erkin fikrlarini bemalol ravon nutq bilan ayta olishi bu pedagoglarning eng katta maqsadlari hisoblanadi. Mir Alisher Navoiy o'zining „Farhod va Shirin“ dostonida Shirinni zoxiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bu darajaga yetishida xolasi Mexinbonuning tarbiyasi katta bo'lgan. Natijada Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qazish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o'sha xayrli ishlarga bosh bo'ladi. Shirinning latofatlilik shunda ediki, u molu davlatga uchmagan. Aksincha inson bo'lish va chin insonni sevishni baxt deb bilgan. Albatta biz tarbiyachi pedagoglar ham shunday ajoyib, dono, zukko bilimlari o'g'il-qizlarni tarbiyalashimiz muhimdir.

Shuningdek bolalarga tarbiya berish jarayonida vatanimizning milliy qadriyatlarini o'rgatib ananalari bilan tanishtirib, o'zimizning milliy qadriyatlarimizni urf-odatlarimizni singdirgan holda ta'lim va tarbiya betib borishimiz muhim.

Go'yoki tarbiya biz uchun-yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ta'lim va tarbiyaga bulgan mehr muhabbatimizni namoyon qilib astoydil vatan tuyg'usini qalbimizda joylab kelajak avlodga namuna bo'lishimiz kerak. Qolaversa bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida milliy urf-odatlarimizga qadriyatlarimizga suyangan holda e'tibor bilan ularga yetqazishimiz, bizning, ertangi hayotimizda juda muhimligini takidlab o'tishimiz joiz

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. A.K. Munavvarov. "Pedagogika". Toshkent, "O'qituvchi" 1996
2. Egamberdieva, N. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2009.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirlar mahkamasi 2018-yil 7-iyul 4-son hayat yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan